

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*60910100– Stomatologiya bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining*

***MALAKA TALABLARI***

**Toshkent 2025**



**ISHLAB CHIQLGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2025 yil «24» avgust dagi 316 - sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanishi .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi .....	4
1.2.1	Kasbiy faoliyatining sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatining ob'ektlari .....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar .....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar .....</b>	7
2.1.	Kasbiy kompetentsiya toifalari.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	11
2.3.	60910100-Stomatologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	11
2.4.	Kvalifikatsiya.....	12
	<b>Bibliografik ma'lumotlar .....</b>	13
	<b>Kelishuv varag'i .....</b>	14

## 1. Umumiy tavsifi

60910100 – Stomatologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklda amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 5 yil.

### 1.1. Qo'llanish sohasi

#### 1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi 60910100 – Stomatologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### 1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul, hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgalik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

bakalavr bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar ularning ot-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### 1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.

#### 1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, o'tkir va surunkali stomatologik kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishining oldini olish, yuqumli kasalliklarning oldini olish doirasida epidemiya va pandemiyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kasalliklarni tashxislash va davolashning zamonaviy usullari, milliy protokollardan hamda dalillarga asoslangan tibbiyotdan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy muammolari bo'yicha asosiy vazifalarni hal qilish, raqamli texnologiyalardan, jumladan, elektron tibbiy qaydlar va teletibbiyotdan samarali foydalanish, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo'yicha kompleks masalalarni yechishni o'z ichiga oladi.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohaslarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:**

Sog'liqni saqlash tizimidagi barcha davlat va nodavlat davolash muassalalarida shifokor umumiy stomatolog.

60910100 – Stomatologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlangandan so'ng, bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *tibbiy-profilaktik;*
- *tashxislash va davolash;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *axborot-tahliliy;*
- *ilmiy-tadqiqot*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60910100 – Stomatologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

#### **Tibbiy-profilaktik faoliyatida:**

salomatlik, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, shuningdek, stomatologik madaniyat, sanitar-gigiyenik tarbiya, ratsional ovqatlanish, zararli odatlar bilan kurashish, o'smirlarni sog'lomlashtirish, ona va bola salomatligini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

aholi orasida keng tarqalgan stomatologik kasalliklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

surunkali stomatologik kasalliklarni erta aniqlash maqsadida profilaktik va maqsadli tibbiy ko'rik o'tkazish, aholining umumiy dispanserizatsiyasini amalga oshirish;

tibbiy-profilaktika faoliyatida ilg'or, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

#### **Tashxislash va davolash faoliyatida:**

stomatologik kasalliklarga uchragan bemorlardan (ularning qonuniy vakillaridan) shikoyatlarni, hayot va kasallik tarixini to'plash, stomatologik kasalliklar rivojlanishining xavf omillari va sabablarini aniqlash;

stomatologik kasalliklarga uchragan bemorlardan (ularning qonuniy vakillaridan) olingan ma'lumotlarni tahlil qilish;

stomatologik kasalliklarga uchragan bemorlarni ko'rikdan o'tkazish va jismoniy tekshirish usullarini qo'llash va natijalarini baholash;

tishlarning qattiq to'qimalari kasalliklari bo'lgan bemorlarda pulpa va periodont kasalliklari, parodont, og'iz shilliq qavati va lab kasalliklarini tashxislash;

stomatologik kasalliklarga uchragan bemorlarda tishlar, tish qatorlari nuqsonlari, tish-jag' deformatsiyalari va tish hamda jag' anomaliyalari, tishlarning to'liq yo'qligi va ularning rivojlanish omillari, tishlar, yuz skeleti suyaklari va yuz-jag' sohasining yumshoq to'qimalari jarohatlari tashxisini qo'yish;

stomatologik kasalliklarga uchragan bemorlarda yuz-jag' sohasi onkologik kasalliklarining xavf omillarini aniqlash;

dastlabki tashxisni shakllantirish, tibbiy yordam standartlarini hisobga olgan holda tibbiy yordam ko'rsatish tartiblari va klinik tavsiyalarga muvofiq stomatologik kasalliklarga uchragan bemorlarda laboratoriya, instrumental va qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish rejasini tuzish;

stomatologik kasalliklarga uchragan bemorlarni amaldagi stomatologik tibbiy yordam ko'rsatish tartiblari, klinik tavsiyalar va tibbiy yordam standartlariga muvofiq laboratoriya, instrumental va qo'shimcha tekshiruvlarga yo'naltirish;

stomatologik kasalliklarga uchragan bemorlarni tibbiy yordam ko'rsatish tartiblari, klinik tavsiyalar va tibbiy yordam standartlariga muvofiq mutaxassis shifokorlar maslahatiga yuborish;

stomatologik kasalliklarga uchragan bemorlar uchun mutaxassis shifokorlar maslahatlarining natijalarini tahlil qilish va talqin etish;

bemorlarni qo'shimcha tekshirishlar (jumladan rentgenologik usullar) zarurligi va hajmini asoslash;

stomatologik kasalliklarga uchragan bemorlarda asosiy (klinik) va qo'shimcha (laboratoriya, instrumental) tekshiruv usullari natijalarini, shu jumladan rentgenologik ma'lumotlarni tahlil qilish va talqin etish;

bemorlarda stomatologik kasalliklarning qiyosiy tashxisini o'tkazish;

xalqaro kasalliklar tasnifini (XKT) hisobga olgan holda yakuniy tashxisni shakllantirish;

shoshilinch tibbiy yordam talab qiladigan, hayotga xavf soluvchi aniq belgilersiz to'satdan paydo bo'lgan o'tkir kasalliklar, holatlar va surunkali kasalliklarning kuchayishining klinik belgilarini aniqlash;

elektron poliklinika tizimini yuritishni bilish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

sog'liqni saqlashda birlamchi bo'g'ini ishini tashkil qilish va uni boshqarish; tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlari natijalarini baholash;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish, kasbiy faoliyati jarayonida sifatni boshqarish;

aholi sog'lig'i holatining asosiy ko'rsatkichlarini rejalashtirish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

demografik ko'rsatkichlarni tahlil qilish va hisobot tayyorlash;

aholi o'rtasida yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarni uchrashi bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobot tayyorlash;  
rejali va tezkor emlash natijalari bo'yicha ma'lumot tayyorlash va taqdim etish.

### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;  
ilmiy-amaliy seminarlar va konferensiyalarda ishtirok etish;  
ilmiy-tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;  
mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;  
ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**2.1. Kasbiy kompetensiyalar ro'yxati quyidagi kompetensiya toifalari asosida shakllantiriladi:**

Tibbiy bilimlar;  
Amaliy ko'nikmalar va klinik fikrlash;  
Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya;  
Etika va empatiya;  
Umumiy stomatolog shifokorning shaxsiy rivojlanishi;  
Uzluksiz kasbiy rivojlanish;  
Jamoat salomatligini saqlash.

<b>Kompetensiya toifalari</b>	<b>Kod</b>	<b>Kompetensiya</b>
<b>Tibbiy bilimlar (TB)</b>  Tibbiy bilimlarni egallash	TB.1	Odam organizmining tuzilishi va funksiyalari, yuz-jag' sohasini normal anatomik va fiziologik rivojlanishini bilish (hamma yosh toifalari)
	TB.2	Kasalliklarning qiyosiy tashxisini bilish
	TB.3	Organizm struktur-funksional o'zgarishlari asosida kasalliklarning xavf omillari, salomatlik determinantlarini (genetika/irsiyat, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, xulq-atvor omillari va boshqalar) bilish.
	TB.4	Laborator-instrumental tekshiruv usullarini va tahlil qilishni bilish
	TB.5	Dalillarga asoslangan tibbiyot doirasida davolash tamoyillarini bilish
	TB.6	Tanlangan terapiyaning maqsadli asoslarini bilish
	TB.7	Klinik protokollar va tavsiyalar asosida bemorlarga yordam ko'rsatish qoidalarini bilish
	TB.8	Stomatologik kasalliklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasini bilish

	TB.9	Nomedikamentoz davolash asoslarini bilish (sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, chekish va semizlik bilan kurashish va b.) va aholiga sog'lom hayot tarzi haqida ma'lumot berishni bilish
	TB.10	Aholining alohida guruhlarida biologik, psixologik, ijtimoiy va xulq-atvor o'zgarishlarini bilish (homiladorlar, imkoniyati cheklangan shaxslar, onkologik bemorlar va boshqalar)
<b>Amaliy ko'nikmalar va klinik fikrlash (AK)</b>  Bemorlarni olib borishda amaliy va diagnostik ko'nikmalarni namoyon qilish	AK.1	Bemorlarning shikoyatlari va anamnezini yig'ish
	AK.2	Bemorlarning obyektiv ko'rigini o'tkazish, aniqlangan o'zgarishlarni tahlil qilish (hamma yosh toifalari)
	AK.3	Kasalliklarning qiyosiy tashxisini o'tkazish
	AK.4	Diagnostik (laborator-instrumental) tekshiruv usullarini tavsiya qilish va natijalarini tahlil qilish
	AK.5	Rasmiy qabul qilingan kasalliklarni kodlash tizimlari talablariga muvofiq dastlabki va klinik tashxisni shakllantirish
	AK.6	Bemorni olib borish va davolash rejasini tuzish
	AK.7	Stomatologik kasalliklarga tashxis qo'yish, davolash va rehabilitatsiya qilishda "dalillarga asoslangan tibbiyot"ning asosiy tamoyillarini qo'llash
	AK.8	Bemorlarni statsionar davoga shifoxonaga yotqizishdan oldingi bosqichda birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun muolajalarni amalga oshirish
	AK.9	Oilaviy poliklinikada keng tarqalgan stomatologik kasalliklarni oldini olish usullarini qo'llash
	AK.10	Bemorga uning salomatligi va kasallik oqibati haqida ma'lumot berish
	AK.11	O'zRSSH buyruqlari asosida tibbiy hujjatlarni yuritish
	AK.12	Elektron sog'liqni saqlash tizimida ishlash va teletibbiyot xizmatlarini qo'llash
	AK.13	Kasalliklarni skriningini va dispanserizatsiyasini o'tkazish, shuningdek rehabilitatsiya usullarini tavsiya qilish
	ShM.1	Profilaktika, diagnostika va davolash maqsadlariga erishish uchun bemorga yo'naltirilgan samarali

<b>Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya (ShM)</b>  Bemorlar, oila, hamkasblar va jamoa a'zolari bilan samarali muloqot		muloqot va shaxslararo muloqot ko'nikmalaridan foydalanish va namoyish etish
	ShM.2	Etika me'yorlariga rioya qilgan holda bemorlar va ularning yaqinlariga qo'yilgan tashxis va davolash rejasini aniq tushuntirish
	ShM.3	Bemorlar va ularning oilalariga ma'lumot berish, maslahat berish va o'rgatish
	ShM.4	Jamoada, hamkasblar bilan, boshqa yo'nalishdagi mutaxassislar bilan muloqot qilganda ShAM ko'nikmalarini qo'llash
	ShM.5	Bemorlarni davolashda ishni optimallashtirish va qaror qabul qilish uchun raqamli teletibbiyot texnologiyalaridan foydalanish
<b>Etika va empatiya (EE)</b>  Bemorlar va aholi bilan o'zaro munosabatlarning axloqiy tamoyillariga, empatiyaga yo'naltirilgan aholiga xizmat ko'rsatish amaliyoti	EE.1	Jinsi, yoshi, millati, madaniyati, dini, nogironligi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va boshqalardan qat'i nazar, teng, xolis munosabatni va hurmatni namoyish etish
	EE.2	Insonparvarlik, empatiya, hamdardlik, sezgirlik va bemorlar va ularning qonuniy vakillariga nisbatan halollik ko'rsatish
	EE.3	Mustaqillik, maxfiylik, adolat, tenglik va xabardor qilingan rozilikka oid axloqiy tamoyillarga sodiqlikni namoyish qilish
	EE.4	Bemorning shaxsiy manfaatlaridan ustun bo'lgan ehtiyojlari va ehtiyojlari uchun mas'uliyat ko'rsatish.
<b>Shaxsiy rivojlanish (ShR)</b>  Tibbiy amaliyot uchun muhim bo'lgan shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni namoyon qilish	ShR.1	Shaxsiy kompetentlik doirasida ishlash, o'zining funksional majburiyatlarini bajara olmaslik sabablarini bilish
	ShR.2	Qarorlarni qabul qilishda hamkasblarda ishonch xissini oshiruvchi ishonch va javobgarlikni namoyon qilish
	ShR.3	Odob-axloq me'yorlarini bilish, stressni boshqara olish, qaror qabul qilish, o'z imiji ustida ishlash nizoli holatlarni boshqara olish
<b>Uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR)</b>  Uzluksiz kasbiy rivojlanish va malaka oshirishga	UKR.1	Shaxsiy kompetentlik doirasida o'z bilimi, klinik ko'nikmalarini yangilab borish
	UKR.2	Shaxsiy ehtiyojga ko'ra malakasini oshirish orqali ish samaradorligini oshirish uchun maqsad va strategiyalarni ishlab chiqish

tarafdorlik va qobiliyatni namoyon etish	UKR.3	O'z bilimi va ko'nikmalarini uzluksiz oshirib borish
	UKR.4	Bemorlar va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun xalqaro ilmiy, dalillarga asoslangan bazani, ilmiy tadqiqot natijalarini topish, baholash va qo'llash
	UKR.5	Axborot resurslarida ishlash, yangi bilimlarni tahlil qilish va kasalliklarni tashxislash, davolash va oldini olish protokollarini o'z amaliyotiga joriy etish. Dalillarga asoslangan texnologiyalar yoki xizmatlarni tatbiq qilish
<b>Jamoat salomatligi (JS)</b>  Bemorlar va aholiga optimal xizmatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimi va sog'liqni saqlashni tashkil etish to'g'risidagi bilimlarni namoyish etish	JS.1	Sog'liqqa ta'sir qiluvchi omillarni, shu jumladan tarkibiy va ijtimoiy determinantlarni, aholi o'rtasida kasalliklar, asoratlar va nogironlikning oldini olishni aniqlash va tegishli vazirlik va idoralarni xabardor qilish
	JS.2	Sog'liq muammolarini, xavf omillarini, davolash strategiyasini va profilaktika choralari aniqlash uchun epidemiologiya va biotibbiyot statistikasi tamoyillarini bilish. Kasalliklar haqida ma'lumot berish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish
	JS.3.	Sog'liqni saqlash tizimida bemorlarni parvarish qilishni muvofiqlashtirish uchun professional jamoada ishlash
	JS.4	Bemorlar va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish uchun tizimli va jamoaviy yondashuvdan foydalangan holda klinik amaliyotni doimiy ravishda takomillashtirishda ishtirok etish
	JS.5	Bemorlarga yetkaziladigan zararni kamaytirishga qaratilgan xavfsizlik choralari ko'rish
	JS.6	Aholiga (bemorlarga) parvarish va xizmat ko'rsatishda moliyaviy va resurs xarajatlarini hisobga olish hamda xavf va foyda nisbatini tahlil qilish
	JS.7	Profilaktik tadbirlarni integratsiya qilish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish
	JS.8	Sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish tizimlari (shu jumladan, Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi, kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi) bilan ishlashni bilish

## 2.2. Kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:

Talabalarni kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi;

Stomatologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv rejasidagi majburiy fanlar blokiga bevosita kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar;

Tanlov fanlari blokiga ta'lim yo'nalishi doirasida mutaxassislikdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek talabalarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondoshuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar kiritiladi.

### Ta'lim yo'nalishi bo'yicha qu'yidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti
2. Ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti
3. Bitiruv oldi amaliyoti

## 2.3. 60910100 - Stomatologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>7830</b>	<b>261</b>	<b>1-10</b>
<b>1.1.</b>		<b>Gumanitar va ijtimoiy fanlar moduli</b>	<b>540</b>	<b>18</b>	<b>1-3</b>
1.1.01.	O'YAT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.1.02.	FA1204	Falsafa	120	4	2
1.1.03.	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3-4
1.1.04.	O'RTO'TSQTXT11206	O'zbek (rus) tili. O'zbek tilining sohada q'ollanilishi. Tibbiyotda xorijiy til	180	6	1-2
<b>1.2.</b>		<b>Klinika oldi fanlar moduli</b>	<b>2190</b>	<b>69</b>	<b>1-5</b>
1.2.01.	TBFTAT1104	Tibbiy va biologik fizika. Tibbiyotda axborot texnologiyalar	120	4	1
1.2.02.	LOTT1102*	Lotin tili va tibbiy terminologiya	60	2	1
1.2.03.	AN1123011	Odam anatomiyasi 1,2,3	330	11	1,2,3
1.2.04.	KLAN1404	Klinik anatomiya	120	4	4
1.2.05.	TBG.GIS112308	Tibbiy biologiya. Gistologiya, sitologiya va embriologiya	240	8	1,2,3
1.2.06.	TBK12308	Tibbiy kimyo. Biologik kimyo.	240	8	2,3
1.2.07.	FIZ12308	Fiziologiya-Yuz fiziologiyasi.	240	8	2,3
1.2.08.	PATFIZ1406	Patologik fiziologiya	120	4	4
1.2.09.	PATAN1406	Patologik anatomiya	120	4	4
1.2.10.	MBV1404	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya	120	4	4
1.2.11.	FAR1504	Farmakologiya	120	4	5

1.2.12.	GTE1304	Gigiena. Tibbiy ekologiya.	120	4	3
1.2.13.	JSSSTE1404	Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni tashkil etish	120	4	4
<b>1.3.</b>		<b>Klinik (mutaxassilik) fanlar moduli</b>	<b>5160</b>	<b>172</b>	<b>1-10</b>
1.3.1.	TER.KF15608	Terapiya. Klinik farmakologiya	240	8	5,6
1.3.2.	PED.TG1804	Pediatriya. Tibbiy genetika.	120	4	8
1.3.3.	DERM 1603*	Dermatovenerologiya	60	2	6
1.3.4.	YQMKAS1702*	Yuqumli kasalliklar. Epidemiologiya.	60	2	7
1.3.5.	NERV.RBT1705	Nevrologiya. Reabilitologiya	150	5	7
1.3.6.	PSXNR1702*	Psixiatriya, narkologiya	60	2	7
1.3.7.	STVF1602*	Sud tibbiyoti va vrach faoliyatining huquqiy asoslari	60	2	6
1.3.8.	TRAD1503*	Tibbiy radiologiya	90	3	5
1.3.9.	XIR.TTY. 15606	Xirurgiya. Neyroxirurgiya. Tez tibbiy yordam	180	6	5,6
1.3.10.	AKSh1702	Akusherlik	60	2	7
1.3.11.	ORL1903	Otorinolaringologiya	90	3	8
1.3.12.	OFT1903	Oftalmologiya	90	3	8
1.3.13.	SK1104	Stomatologiyaga kirish	90	3	1
1.3.14.	PRS11208	Preklinik restavratsion stomatologiya	240	8	1,2
1.3.15.	KRS13408	Klinik restavratsion stomatologiya	240	8	3,4
1.3.16.	KE16708	Klinik endodontiya	240	8	5,6
1.3.17.	SKP15608	Stomatologik kasalliklar profilaktikasi	240	8	5,6
1.3.18.	PD17808	Paradontologiya	240	8	7,8
1.3.19.	OBSHPK191008	Og'iz bo'shlig'i shilliq parda kasalliklari	240	8	9,10
1.3.20.	BKAR1804	Bolalar kariesologiyasi	120	4	8
1.3.21.	BOBSHQK191008	Bolalar og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklari	240	8	9,10
1.3.22.	XS15679	Xirurgik stomatologiya	270	9	5,6,7
1.3.23.	BJS19108	Bolalar jarrohlik stomatologiyasi	240	8	9,10
1.3.24.	YJKJ17808	Yuz-jag' kasalliklari va jarohatlari	240	8	7,8
1.3.25.	YJJ191008	Yuz-jag' jarrohligi	240	8	9,10
1.3.26.	OSP12308	Ortopedik stomatologiya propedevtikasi	240	8	2,3
1.3.27.	FOS1.15606	Fakultet ortopedik stomatologiya 1	180	6	5,6
1.3.28.	FOS21704	Fakultet ortopedik stomatologiya 2	120	4	7
1.3.29.	GOS191008	Gospital ortopedik stomatologiya	240	8	9,10
1.3.30.	ORT18908	Ortodontiya	240	8	8,9
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>660</b>	<b>22</b>	<b>4,5,6,8-10</b>
		<b>Jami</b>	<b>8430</b>	<b>281</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>570</b>	<b>19</b>	<b>1-10</b>
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	
		<b>Jami</b>	<b>570</b>	<b>19</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>9000</b>	<b>300</b>	

**Kvalifikatsiya: Umumiy stomatolog shifokori.**

**Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

**Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavrning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, malaka talablari, bakalavriyatning o'quv jarayoni, sifatini baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, tibbiy bilim, sog'liqni saqlash tizimi, amaliy ko'nikmalar, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, davolash faoliyati, tibbiy-profillaktik faoliyati, tezkor va shoshilinch tibbiy yordam faoliyatida, reabilitatsiya faoliyati, tadqiqot faoliyati, kasallik, davolash muassasalari, profilaktika, davolash usullari, diagnostika.

Stomatologiya, umumiy amaliyot stomatologi, asboblar va ashyolar, terapevtik stomatologiya, ortopediya, ortodontiya, bolalar stomatologiyasi, jarrohlik stomatologiyasi, tish, milk, ildiz, protezlash, yuz-jag', onkologiya, yallig'lanish, kasalliklar, parodont, karies, plomba, borlar, pulpit, periodontit, karash, og'iz bo'shlig'i shilliq qavati, tishlov, fantom-modellar, yoy, ko'priksimon tish protezi, parodont, dental implantologiya, okklyudator, sun'iy tish, artikulyator, qolip, chakka pastki jag' bo'g'imi.

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQLIGAN:**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti,  
“Sog‘liqni saqlash” ta'lim sohasi bo'yicha  
muvofiqlashtiruvchi soha Kengashi raisi,

Rektor  Sh.Boymuradov

2025-yil “ ”



**KELISHILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  A.Xoliqov

2025-yil “ ”



O'zbekiston Respublikasi  
Sog‘liqni saqlash vazirligi

Vazir  
o'rinbosari  E.Basitxonova

2025-yil “ ”



O'zbekiston Respublikasi Sog‘liqni  
saqlash vazirligi  
Fan-ta'lim va innovatsiyalar  
boshqarmasi

Boshliq  O'.Ismailov

2025-yil “ ”



Toshkent shahar sog‘liqni saqlash  
bosh boshqarmasi

Boshliq  B.Isabekov /

2025-yil “ ”



O'zbekiston Respublikasi  
Stomatologlar assotsiatsiyasi

Rais  A.Xasanov

2025-yil “ ”

